

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI  
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

**XALILOV JAHONGIR MANSUR O‘G‘LI**

**INTENSIV BOG‘ QATOR ORALARIGA ISHLOV BERADIGAN  
TAKOMILLASHGAN MASHINA ISH ORGANLARINING  
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 - «Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash»**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of  
Philosophy (PhD) on technical sciences**

**Xalilov Jahongir Mansur o‘g‘li**

Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashina ish organlarining parametrlarini asoslash..... 3

**Халилов Жаҳонгир Мансур угли**

Обоснование параметров рабочих органов усовершенствованной машины обрабатывающей междурядья интенсивного сада..... 19

**Khalilov Jakhongir Mansur ugli**

Basing of the parameters of the working parts of an improved machine for processing the row spacing of an intensive garden ..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 41

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI  
BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI**

**XALILOV JAHONGIR MANSUR O‘G‘LI**

**INTENSIV BOG‘ QATOR ORALARIGA ISHLOV BERADIGAN  
TAKOMILLASHGAN MASHINA ISH ORGANLARINING  
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 - «Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash»**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T3742 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Imomqulov Qutbiddin Boqijonovich</b> texnika fanlari doktori, professor
<b>Taqrizchilar:</b>	<b>Zafar Lutfullayevich Batirov</b> texnika fanlari doktori, dotsent <b>Islomov Yorqin Iskandarovich</b> texnika fanlari falsafa doktori (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi</b>

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «5» mart soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «19» fevral kuni tarqatildi  
(2025-yil «19» 02 dagi № 10 raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.M. Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, f.d., professor  
**D.Sh. Chuyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.d., professor  
**F.F. Ishdavatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, intensiv mevali bog‘larda sifatli mahsulot yetishtirish uchun xizmat qiladigan ish unumi va sifati yuqori bo‘lgan texnika vositalari va texnologiyalarini yaratish borasida AQSh, Germaniya, Ispaniya Rossiya federatsiyasi, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Hozirda dunyo miqyosida mevali bog‘ maydonlari 53,4 mln. gektarni tashkil etishini hisobga olsak<sup>1</sup>, ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan energiya resurstejamkor mashinalarni yaratish va ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or tajribalarni qo‘llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog‘ qator orasiga ishlov berishda energiya resurstejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarning yangi turlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, kultivatorlarning takomillashtirilgan ishchi qismlarini ishlab chiqish, ular bajaradigan texnologik jarayonlarni va eng maqbul parametrlarini asoslash, tuproqqa ishlov berish jarayonining resurstejamkorligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz sharoitida intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan energiya va resurstejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarning yangi turlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu sohada kultivatorlarning takomillashgan ishchi qismlarini ishlab chiqish, tuproqqa ishlov berish jarayonining resurstejamkorligini ta‘minlash, shuningdek, intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan mashinani ishlab chiqish va uning ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta‘minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ 4406-son «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi<sup>2</sup> qarorining ijrosini ta‘minlash hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi 458-sonli qarori bilan Qishloq xo‘jaligi birlashmalarining a‘zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik sub’ektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar va payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to‘g‘risidagi nizomi tasdiqlandi. Ushbu nizomni va ijrosini ta‘minlash maqsadida respublikamiz qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog‘ va uzumzorlar barpo etilmoqda. Xususan, respublikamizda 77412 gektar yer maydonda intensiv bog‘lar tashkil etilgan bo‘lib, shundan 54586 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan. Mazkur dissertatsiya ishi yuqorida ta‘kidlangan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup><https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/9a0fca06-5c5b-4bd5-89ebdbec0f27274/content>;

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijda bog‘ qator oralari tuprog‘iga ishlov berish texnologiyalari va texnik vositalarini ishlab chiqish, hamda takomillashtirish bo‘yicha Rossiya federasiyasida S.A.Tverdoxlebova, V.V.Бычков, A.P.Gribanovskiy, N.I.Gerasimov, Ya.Z.Jiliskim, S.N.Xabarov, Ya.V.Voronin, Ukrainada P.M.Vasilenko, P.N.Burchenko, Nigeriada L.Stanley, AQSHda Mazin Saber, Bolgariyada Ivan Morteve, Ispaniyada David va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston sharoitida bog‘ qator oralariga ishlov berish qurilmalarini ishlab chiqish va qo‘llash, ularning ish ko‘rsatkichlarini o‘rganish bo‘yicha A.Ribakov, R.Abdullayev, T.T.Axmedov, R.I.Baymetov, F.M.Mamatov, A.U.Aripov, A.T.Musurmonov, X.B.Utaganov va L.A.Ishonxodjayevalar shug‘ullanishgan va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida bog‘ qator oralari tuprog‘iga ishlov beradigan bog‘dorchilik pluglari, diskli mashinalar, chuqur yumshatgichlar, bog‘ qator oralari va tana atrofiga ishlov beruvchi ish organlar ishlab chiqilgan va bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda. Yuqorida ta‘kidlangan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida yaratilgan bog‘ qator oralariga ishlov beradigan mashinalar an‘anaviy mevali bog‘larda qo‘llanishga mo‘ljallangan. Ammo respublikamiz sharoitida intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organ turini tanlash, uning parametrlarini va ish rejimlarini asoslash bo‘yicha yetarli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti va Qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Intensiv bog‘larda tomchilatib sug‘orishda ochilib qolgan daraxt ildizlarini ko‘madigan va qator oralariga ishlov beradigan mashina ishlab chiqish” rejasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organ turini tanlash va parametrlarini asoslash yo‘li bilan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berish, begona o‘tlarni yo‘qotish, mashinaning kam energiya sarflagan holda ish sifatini oshirish, yonilg‘i va resurs xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

bog‘ qator oralariga ishlov berish usullari va uni amalga oshiradigan texnika vositalari bo‘yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganish;

intensiv bog‘ qator oralarining holati va tuprog‘ining fizik-mexanik xossalarini o‘rganish;

intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organlarini turini tanlash va shu asosda intensiv bog‘ qator oralaridagi begona o‘tlarni to‘liq kesib, qator orasiga sifatli ishlov beradigan mashinani ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan mashinaning bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organlari parametrlarini asoslash bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish;

o‘tkazilgan tadqiqotlarga asosan respublikamiz sharoitida intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashinaning tajribaviy nusxasini tayyorlash va sinovdan o‘tkazish;

intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashina ish organlarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob‘yekt**i intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organlar hamda u bajaradigan texnologik jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan mashina ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonini ifodalovchi matematik modellar va analitik ifodalar, qator orasidagi begona o‘tlarni yo‘qotilish sifati, ish organining parametrlari va agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda ularning o‘zgarish qonuniyatlari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, dehqonchilik mexanikasi, oliy matematika, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda (O‘z DSt 3236:2017, O‘z DSt 3412:2019, GOST 20915-2011, O‘z DSt 3193:2017, GOST R 53056-2008, O‘z RD 63.03-98) belgilangan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashina ish organlarining konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayoni, intensiv bog‘ning umumiy holati va tuproqning mexanik-fizik xossalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va asoslangan;

intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashinaning keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonlari va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog‘lanishlar bog‘ qator oralarida belgilangan chuqurlikkacha ishlov berish va begona o‘tlarni to‘liq kesib yo‘qotish mezonlari asosida chiqarilgan;

intensiv bog‘ qator orasiga sifatli ishlov berib, begona o‘tlarni kesib yo‘qotadigan ish organining ish sifati va tortishga qarshiligini uning parametrlari va ish tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlari o‘rganilgan;

intensiv bog‘ qator oralari tuproqlariga belgilangan agrotexnik talab darajasida ishlov berib, begona o‘tlarni kesib yo‘qotadigan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlarining maqbul qiymatlari ularning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlarini baholovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

respublikamiz tuproq-iqlim sharoitiga mos texnik yechim va texnologik ish jarayoniga ega bo‘lgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan

jihozlangan mashinaning konstruksiyasi ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

asoslangan parametrlarga ega bo'lgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan bog' qator oralariga ishlov beradigan mashinani qo'llash energiya, resurs sarflari kamayishiga va ish unumi ortishiga olib kelgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligidir. Shuningdek, intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan ish organ parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoidalariga amal qilinganligi, tajribalarda olingan ma'lumotlarga matematik statistika usullari yordamida ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan mashina dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intensiv bog'larga ishlov beradigan mashinaning bog' qator orasiga sifatli ishlov berib, begona o'tlarni yo'qotadigan ish organning kam energiya sarflagan holda agrotexnika talablar darajasidagi ish sifatini ta'minlaydigan parametrlari asoslanganligi, shuningdek, olingan matematik va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan mashina qo'llanilganda, agrotexnika talablar darajasida ishlov berilishi va begona o'tlarni yo'qotilish darajasining ortishi, yonilg'i, moddiy va mehnat xarajatlarining kamayishi va ish unumining oshganligi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Intensiv bog' qator orasiga ishlov beradigan takomillashgan mashinaning keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan va bir o'tishda ochilib qolgan daraxt ildizlarini ko'madigan mashinaga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Toshkent viloyat, Yangiyo'l tumani bog'dorchilik fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 7-avgustdagi 05/04-04-377-son ma'lumotnomasi). Natijada sarflanadigan mehnat sarfi 46,08 foizga, ekspluatasion xarajatlar 26,02 foizga kamaygan;

intensiv bog'larga ishlov beradigan mashinani ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari «O'zagroremmashservis» MCHJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan («O'zagroremmashservis» MCHJ ning 2024 yil 10-iyundagi №22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada intensiv bog' qator oralari tuprog'iga ishlov beradigan va daraxt ildizlarini ko'madigan mashinani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Vazifaning qo'yilishi va tadqiqot ishining maqsadi”** deb nomlangan birinchi bobida tomchilatib sug'oriladigan intensiv bog'larning an'anaviy bog'lardan afzalliklari, ularning bugungi kundagi ahamiyati, intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan mashinaga qo'yiladigan agrotexnik talablar, bog' qator oralariga ishlov beradigan mashinalar va ish organlarining tahlili, bog' qator oralariga ishlov beradigan qurilmalarini yaratish va takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Respublikamiz sharoitida intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan ish organining ishlash sharoitini o'rganish va turini tanlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida intensiv bog'ning umumiy holati, tuproqning fizik-mexanik xossalarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarning natijalari va ishchi organi turini tanlash bo'yicha o'tkazilgan dala tajribalarining natijalari keltirilgan.

Ish organ turini tanlash bo'yicha o'tkazilgan dala tajribalarida adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib quyida berilgan uch xil ish organlar tanlab olindi.



- yumshatkich panjalar bilan jihozlangan chizel-kultivator;
- yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan kultivator;
- keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan kultivator.

Yuqoridagi tanlab olingan ish organlarining ishlov bergan maydondagi begona o'tlarni kesilish darajasi, ishlov berish chuqurligi, tuproqning uvalanish darajasi hamda tortishga qarshiligi bo'yicha olingan natijalarga ko'ra: keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan kultivator tanlab olindi va keyingi tadqiqotlarda uning parametrlarini asoslashga qaratildi.

Dissertatsiyaning **“Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlarining parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqot natijalari”** deb nomlangan

uchinchi bobida intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan mashinaning keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organining parametrlarini asoslashga doir nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan mashina osish qurilmasi bilan jihozlangan umumiy rama (1), old va orqa qator keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar (2,5), sferik disklar (3) hamda tuproq surgich tekislagichlar (4) dan tashkil topgan (1-rasm). Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organi esa ustun 1, unga o'rnatilgan iskana 2, o'ng 3 va chap 4 pichoqlar va ularga payvandlangan xivichlardan tashkil topgan (2-rasm).





1-osish qurilmasi bilan jihozlangan rama; 2,5-old va orqa qator keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar; 3-sferik disk; 4-tuproq surgich tekislagich; 6-tayanch g'ildirak  
**1-rasm. Intensiv bog'larga ishlov beradigan mashinaning konstruktiv sxemasi**

1-ustun; 2- iskana; 3-o'ng va 4-chap pichoqlar  
**2-rasm. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ**

Ustun maxsus kronshteyn vositasida mashinaning ramasiga mahkamlanadi. Mashinaning ish jarayonida ish organi 8-12 cm chuqurlikka botib tuproqni yumshatadi va begona o'tlarni o'ldiradi.

Quyidagilar keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organi va uning ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi parametrlar hisoblanadi (3-rasm).



**3-rasm. Keng qamrovli yassi kesuvchi ish organining tadqiq etiladigan parametrlari**

$\alpha_i$  - iskananing uvalash burchagi, °;  
 $b_i$  - iskananing eni, m;  
 $L_i$  - iskana ishchi sirtining uzunligi, m;  
 $\beta_p$  - pichoqning uvalash burchagi, °;  
 $2\gamma_i$  - ishchi organing ochilish burchagi, °;  
 $i_i, i_n$  - iskana va pichoq tig'larining o'tkirlanish burchaklari, °;  
 $l_x$  - xivich uzunligi;  
 $n_x$  - xivichlar soni, dona.

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organi iskanasi va pichoqlarining uvalash burchaklarini kam energiya sarflagan holda sifatli uvalanishni ta'minlanishi shartidan quyidagi ifodadan foydalanib aniqlaymiz

$$\alpha_i = \beta_p = \arcsin \left\{ \left\{ -\sin(\varphi_1 + \varphi_2) + \left\{ \sin^2(\varphi_1 + \varphi_2) + \left[ 2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi_1 + \varphi_2) \right] \right\} \right\} \times \right.$$

$$\times \left[ 1 + \cos(\varphi_1 + \varphi_2) \right] \left. \right\}^{\frac{1}{2}} \left. \right\} : \left[ 2 + \frac{1}{2} \cos(\varphi_1 + \varphi_2) \right] \left. \right\} , \quad (1)$$

bunda  $\varphi_1, \varphi_2$  mos ravishda tuproqni ish organining ishchi sirtiga va tuproqqa ishqalanish burchaklari,  $^\circ$ .

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ iskanasining enini u tomonidan ishlov berilayotgan qatlam to'liq yumshatilishi, ya'ni uning tubida devorlari zichlangan qatlam hosil bo'lmasligi shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$b_i \geq \frac{(m + ctg \alpha_i) h}{0,1 \frac{T_e}{K_s} [1 + 3ctg(\alpha_i + \varphi_1) - k]} , \quad (2)$$

bunda  $m, k$  – tuproqning fizik-mexanik xossalriga bog'liq bo'lgan o'lchov birliksiz koeffitsient;  $h$  – ishlov berish chuqurligi, m;  $T_e$  – tuproqni ezilishga solishtirma qarshiligi, Pa;  $K_s$  – tuproqni siljishga solishtirma qarshiligi, Pa.

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ iskanasining uzunligini aniqlashda A.To'xtaqoziev va Q.B.Imomqulovlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha

$$S_p = \sqrt{2} \left\{ K_s \left[ b_i + htg \left( 45^\circ - \frac{\varphi_2}{2} \right) \right] h \cos \varphi_1 \cos \varphi_2 \cos \frac{1}{2} (\varphi_1 + \varphi_2 - \alpha_i) \right\}^{\frac{1}{2}} : \\ : \left[ q_o b_i \cos^3 \frac{1}{2} (\alpha + \varphi_1 + \varphi_2) \sin \alpha_i \right]^{\frac{1}{2}} , \quad (3)$$

bunda  $q_o$  – tuproqning hajmiy koeffitsienti, N/m<sup>3</sup>.

Iskananing uzunligi  $L_i$  ni  $S_p$  ning ma'lum qiymati bo'yicha aniqlaymiz. Unga binoan iskana ikki tomonlama qilib tayyorlanishini hisobga olganda,

$$L_i \geq 2AD = \frac{2S_p \sin \psi}{\sin(\alpha_i + \psi)} \quad (4)$$

yoki bunga  $S_p$  ni (3) ifoda bo'yicha qiymatini qo'ysak quyidagi yakuniy natija kelib chiqadi

$$L_i \geq 4 \sqrt{\frac{K_s \left[ b_i + htg \left( 45^\circ - \frac{\varphi_2}{2} \right) \right] h \cos \varphi_1 \cos \varphi_2}{q_o b_i \sin \alpha [\cos \varphi_i + \cos(\varphi_1 + \varphi_2)]}} . \quad (5)$$


Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organining ochilish burchagini uning pichoq tig'lari bo'yida uchraydigan begona o't ildizlarni sirpanib kesish shartini quyidagi ifodadan foydalanib aniqlaymiz

$$2\gamma_i < \pi - 2\varphi_b , \quad (6)$$

bunda  $\varphi_b$  -begona o't ildizlarini yassi kesuvchi ish organi pichoqlarining tig'lariga ishqalanish burchagi,°.

Yuqoridagi keltirilgan ifodalarda  $\varphi_1=25-30^\circ$  va  $\varphi_2=35-45^\circ$ ,  $m = 4.2$ ;  $\alpha_i = 30^\circ$ ;  $h = 0,12$  m;  $k = 2,5$ ;  $T_e = 1,4 \cdot 10^6$  Pa;  $K_s = 2 \cdot 10^4$  Pa,  $q_o = 4 \cdot 10^6$  N/m<sup>3</sup> hamda  $\varphi_b = 45^\circ$  qabul qilinib, (1)-(6) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan nazariy hisoblar keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organi iskanasi va pichoqlarining uvalash burchaklarini 24-31° oralig'ida bo'lishi, ish organ iskanasining eni kamida 8 cm bo'lishi, keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ishchi organ iskanasining uzunligi kamida 17 cm bo'lishi hamda ish organ ochilish burchagi 90° dan kichik bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organining qamrash kengligini 4-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib aniqlaymiz.



**4-rasm. Ish organning qamrash kengligini aniqlashga doir sxema**

$B_u$  - ish organlarining umumiy qamrash kengligi, m;

$B_q$  - bog' qatorlari orasining kengligi, m;

$b_h$  - daraxtlar himoya zonasining kengligi, m;

$b_d$  - ildizlarini ko'muvchi sferik diskning qamrash kengligi, m;

$\Delta$  - ish organlarining bir-birini qoplash kengligi, m.

Undan quyidagi ifodalarga ega bo'lamiz

$$B_u = B_q - 2b_h - 2b_d \quad (7), \quad B_u = 3B_i - 2\Delta \quad (8) \quad \text{va} \quad B_q - 2b_h - 2b_d = 3B_i - 2\Delta \quad (9)$$

Bu ifodani  $B_i$  ga nisbatan yechib, ish organining qamrash kengligini aniqlash uchun quyidagi ifodaga ega bo'lamiz

$$B_i = \frac{1}{3} [B_q - 2(b_h + b_d - \Delta)]. \quad (10)$$

Adabiyotlardan ma'lumki,

$$b_d = 2 \sqrt{\frac{h_D}{\cos \beta} \left( D - \frac{h_D}{\cos \beta} \right)} \sin \alpha, \quad (11)$$

bunda  $h_D$  – diskning tuproqqa botish chuqurligi, m;  $\beta$  – diskning tikka nisbatan o'rnatilish burchagi,°;  $D$  – diskning diametri, m;  $\alpha$  – diskning harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi,°.

(11) ni hisobga olganda (12) ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$B_i = \frac{1}{3} \left\{ B_q - 2 \left[ b_h + 2 \sqrt{\frac{h_D}{\cos \beta} \left( D - \frac{h_D}{\cos \beta} \right)} \sin \alpha - \Delta \right] \right\}. \quad (12)$$

$B_i$  va  $b_i$  ning ma'lum qiymatlari bo'yicha ish organi pichog'ining qamrash kengligi  $b_p$  ni aniqlaymiz.

$$b_p = \frac{B_i - b_i}{2} \quad (13)$$

yoki (13) ni hisobga olganda,

$$b_p = \frac{1}{2} \left\{ \frac{1}{3} \left[ B_q - 2 \left[ b_h + 2 \sqrt{\frac{h_D}{\cos \beta} \left( D - \frac{h_D}{\cos \beta} \right) \sin \alpha - \Delta} \right] \right] - b_i \right\}, \quad (14)$$


bunda  $B_q = 400$  cm,  $b_h = 50$  cm,  $h_D = 16$  cm,  $\beta = 15^\circ$ ,  $\alpha = 40$ ,  $D = 61$  cm va  $\Delta = 5$  cm qiymatlarni qabul qilib, keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ qamrash kengligini 77 cm ekanligini ish organ pichog'ining qamrash kengligi esa 36 cm ekanligini aniqlaymiz.

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlari orasidagi bo'ylama masofa  $L_b$  ni (5-rasm) ular orasidagi begona o'tlar va tuproq tiqilib qolmasligi shartidan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:

$$L_b \geq L_i + L_t, \quad (15)$$

bunda  $L_i$  – yassi kesuvchi ish organining uzunligi, m;

$L_t$  – tuproq deformatsiyasining bo'ylama yo'nalishda tarqalish masofasi, m.



**5-rasm. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlari orasidagi bo'ylama va ko'ndalang masofalarni aniqlashga doir sxema**

$L_i$  - ish organining uzunligi, m;  
 $l_q$  - ish organ iskanasining pichoqqa nisbatan oldinga chiqib turgan qismining uzunligi, m;

$L_k$  - ish organlar orasidagi bo'ylama masofa, m;

$L_b$  - ish organlar orasidagi ko'ndalang masofa, m;

$l_{KL}$  - pichoq  $KL$  qismining uzunligi, m.

5-rasmda keltirilgan sxemaga binoan:

$$L_i = l_q + b_p \operatorname{ctg} \gamma_i + l_{KL}, \quad (16)$$

bunda  $l_q$  – ish organ iskanasining pichoqqa nisbatan oldinga chiqib turgan qismining uzunligi, m;

$l_{KL}$  – pichoq  $KL$  qismining uzunligi, m.

Tuproq deformatsiyasining bo'ylama yo'nalishda tarqalish masofasini quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$l_t \geq \operatorname{htg} \frac{1}{2} (\beta_p + \varphi_1 + \varphi_2) \sin(\gamma_i + \varphi_1), \quad (17)$$

(17) va (18) ifodalarni hisobga olganda (16) ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$L_b = l_q + b_p \operatorname{ctg} \gamma_i + l_{KL} + \operatorname{htg} \frac{1}{2} (\beta_p + \varphi_1 + \varphi_2) \sin(\gamma_i + \varphi_1). \quad (18)$$

Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlari orasidagi ko'ndalang masofani 5-rasmida keltirilgan sxemadan foydalanib quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$L_K = 2 \left\{ \frac{1}{3} \left\{ B_q - 2 \left[ b_h + 2 \sqrt{\frac{h_D}{\cos \beta} \left( D - \frac{h_D}{\cos \beta} \right)} \sin \alpha - \Delta \right] \right\} - \Delta \right\}. \quad (19)$$

Yuqoridagi keltirilgan ifodalarda  $l_q = 10$  cm,  $l_{KL} = 5$  cm qabul qilib hamda  $b_p$ ,  $\gamma_i$ ,  $\beta_p$  va  $h$  ning yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo'yib, ish organlar orasidagi bo'ylama masofa kamida 61 cm, ish organlar orasidagi ko'ndalang masofa esa 150 cm bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Xivichlar sonini ish organ qarash kengligi  $B_i$ , xivichlarning diametri  $d_x$  va ular orasidagi masofa  $b_x$  ga bog'liq ravishda quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$n_x = \frac{B_i - b_i - 2b_x}{d_x + b_x} + 1, \quad (20)$$

bunda  $b_i =$  ish organ iskanasining eni, m.

$B_i = 77$  cm,  $b_i = 8$  cm,  $b_x = 5,5$  cm va  $d_x = 1$  cm qiymatlarni qo'yib, keng qamrovli yassi kesuvchi ish organ xivichlari soni 9,9 dona bo'lishini aniqlaymiz va yakuniy natija sifatida 10 dona qabul qilamiz.

Xivich uzunligini ular orasiga tuproq palaxsalari va begona o'tlarni tiqilib qolmasligi shartidan keltirib chiqarilgan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$l_x \leq \frac{\sigma_c}{\gamma g} \operatorname{ctg}(\beta_{o'r} + \varphi), \quad (21)$$


bunda  $\sigma_c$  – tuproqni siqilishga vaqtinchalik chegaraviy qarshiligi, Pa;  $\gamma$  – tuproqning zichligi, N/m<sup>3</sup>;  $g$  = erkin tushish tezlanishi, m/s<sup>2</sup>.

Agar  $\beta_{o'r} = 24^\circ$ ,  $\varphi = 25^\circ$ ,  $\sigma_c = 2,6 \cdot 10^3$  Pa,  $\gamma = 1200$  kg/m<sup>3</sup>;  $g = 9,81$  m/s<sup>2</sup> bo'lsa (21) ifodaga asosan  $l_x$  qiymati 19,2 cm dan katta bo'lmasligi lozim. Qabul qilamiz  $l_x = 18$  cm.

Ish organning tortishga qarshiligi bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar 1,7-2,2 m/c harakat tezliklarida mashinaning birinchi qatoriga o'rnatilgan ish organining tortishga qarshiligi 5,63 kN oralig'ida, ikkinchi qatorga o'rnatilgan ish organi esa 2,93 kN oralig'ida bo'lishini va barcha ish organlarining tortishga qarshiligi esa 11,49 kN oralig'ida bo'lishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida tajribaviy tadqiqotlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda intensiv bog' qator oralariga ishlov beradigan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organning maqbul qiymatlarini tanlash uchun o'tkazilgan dala tajribaviy tadqiqotlarining natijalari keltirilgan. Bunda nazariy tadqiqotlarda olingan natijalarga asosan ish organning ochilish burchagi  $2\gamma_i = 90^\circ$ , uning qamrash kengliklari  $B_i = 55, 65, 75, 85$  cm va tuproqni uvalash burchaklari  $\beta_p = 15^\circ, 20^\circ, 25^\circ, 30^\circ$  bo'lgan yassi kesuvchi pichoqlar, shuningdek, ish organ iskanasining eni  $b_i = 7, 8, 9, 10$  cm va uning tuproqqa kirish burchaklari  $\alpha_i = 20^\circ, 25^\circ, 30^\circ, 35^\circ$  qilib

o'zgartiriladigan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlari tayyorlandi (6,7-rasmlar).



**6-rasm.** Qamrash kengligi *a)* 55cm; *b)* 65 cm; *d)* 75 cm; *c)* 85 cm bo'lgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar



**7-rasm.** Eni 7 cm (1), 8 cm (2), 9 cm (3) va 10 cm (4) bo'lgan iskanalar

Eksperimental tadqiqotlar dasturida belgilangan vazifalarni bajarish uchun laboratoriya-dala qurilmasining tajriba nusxasi dastlabki talablar va texnik topshiriq asosida QXMITI mini sexida tayyorlandi. Laboratoriya-dala qurilmasi osish qurilmasi bilan jihozlangan rama 1, keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlari 2,3, tayanch g'ildirak 4, ko'ndalang brus 5 va unga o'rnatilgan kronshteyn 6 dan tashkil topgan (8-rasm).




1-rama; 2,3-keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar; 4-tayanch g'ildirak; 5-ko'ndalang brus; 6-kronshteyn.

**8-rasm. Laboratoriya-dala qurilmasining umumiy ko'rinishi**

Eksperimental tadqiqotlarda keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organining qamrash kengligi va ish organ pichog'ining tuproqqa kirish burchagi, ish organ iskanasining eni va uning tuproqni uvalash burchagi, ish organlarining ramada joylashish sxemasi, bog' qator orasidagi begona o'tlarning kesilish darajasi, ishlov berish chuqurligi, ish organining tortishga qarshiligi va tuproqning uvalanish darajasiga ta'siri o'rganildi (10-rasm).

Quyidagi 9-rasmdagi grafiklardan ko'rinib turibdiki, ish organ qamrash kengligi 55 cm dan 85 cm gacha ortganda begona o'tlarning kesilish darajasi va tuproqning uvalanish darajasi ortgan. Bu ko'rsatkichlar agregatning 5,0 va 7,0 km/h tezliklarda ham mos ravishda ortib borgan. Ammo ish organ qamrov kengligi ortishi bilan tortishga qarshilik ham mos ravishda ortib borgan. Chunki, ish organ qamrash kengligini ortishi bilan u ta'sir ko'rsatadigan tuproq yuzasi ham ortadi va natijada tortish qarshiligi mos ravishda ortib boradi.



**9-rasm. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ishchi organ qamrov kengligini begona o‘tlarning yo‘qotilish darajasi (a), ishlov berish chuqurligi (b), tuproqning uvalanish darajasi (s) va tortishga qarshiligi (d) ga bog‘liqlik grafiklari**

O‘tkazilgan bir omilli tajribalar hamda nazariy tadqiqotlarda o‘rganilgan parametrlarning maqbul qiymatlarini asoslash uchun Xartli-5 rejasi bo‘yicha ko‘p omilli eksperimentlar o‘tkazildi. Bunda:  $X_1$  -ish organ qamrash kengligi,  $X_2$  -ish organ pichog‘ining tuproqni uvalash burchagi,  $X_3$  -ish organ iskanasining eni,  $X_4$  -ish organ iskanasining tuproqqa kirish burchagi va  $X_5$  – agregat harakat tezligi eng ko‘p ta’sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi. Baholash mezonlari sifatida begona o‘tlarning kesilish darajasi, ishlov berish chuqurligi, tuproqning uvalanish darajasi va ish organning tortishga qarshiligi qabul qilindi. Tajriba natijalariga ko‘rsatilgan tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- begona o‘tlarning kesilish darajasi (%)

$$Y_1 = 97,721111 + 5,862639x_1 - 0,236250x_5 - 5,203194x_1^2 + 0,373594x_1x_5 - 0,688906x_2x_3 + 0,582656x_4x_5; \quad (22)$$

- ishlov berish chuqurligi (cm)

$$Y_2 = 10,504167 + 1,382639x_1 - 0,407639x_5 - 0,756250x_2^2 - 0,893750x_3^2 + 0,456250x_4^2 + 0,706250x_5^2; \quad (23)$$

- tuproqning uvalanish darajasi (%)

$$Y_3 = 83,559074 + 2,497639x_1 + 0,085833x_2 - 0,174444x_3 + 0,085x_4 + 0,400417x_5 - 0,565694x_1^2 - 0,135938x_1x_2 - 0,178438x_1x_3 - 0,091875x_1x_4 - 0,115625x_1x_5 - 0,441944x_2^2 + 0,115938x_2x_4 - 0,324444x_3^2 + 0,253437x_3x_5 - 0,825x_4x_5 - 0,208194x_5^2; \quad (24)$$

- tortishga qarshilik (kN)

$$Y_4 = 2,33778 + 0,180694x_1 + 0,015x_4 + 0,038194x_5 + 0,044250x_1^2 + 0,013750x_1x_2 + 0,015x_1x_4 -$$

$$- 0,012188x_2x_3 + 0,024375x_2x_4 + 0,0134387x_3x_5 - 0,033250x_5^2 \quad (25)$$

bunda “ $Y_1$ ”- begona o‘tlarning kesilish darajasi 97-98 % oraliqda bo‘lishi, “ $Y_2$ ”- ishlov berish chuqurligi, 10-12 cm bo‘lishi, “ $Y_3$ ”- tuproqning uvalanish darajasi 80-85 % atrofida bo‘lishi hamda “ $Y_4$ ”- minimal qiymatga ega bo‘lishi shartlaridan birgalikda yechildi va keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlar traktorning 5,0-7,0 km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta’minlashi uchun keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar qamrash kengligi 75 cm, ish organ pichog‘ining tuproqqa kirish burchagi 20-25° iskanasining eni 8 cm va uning tuproqqa kirish burchagi 25-30° oraliq‘ida bo‘lishi hamda uning tortishga qarshiligi 3,32-3,33 kN ni tashkil etdi.

O‘tkazilgan bir omilli va ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra: kam energiya sarflagan holda intensiv bog‘ qator oralari tuprog‘ini talab darajasida ishlov berish va begona o‘tlarni to‘liq kesish uchun keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ qamrash kengligi  $B_i$  kamida 75 cm bo‘lishi, ish organ pichog‘ining tuproqqa kirish burchagi 20-25° atrofida, iskanasi eni 8 cm hamda iskananing tuproqqa kirish burchagi 25-30° bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertasiyaning «**Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashinaning xo‘jalik sinov natijalari hamda uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari**» deb nomlangan beshinchi bobida ishlab chiqilgan intensiv bog‘ qatorlariga ishlov beradigan takomillashgan mashina tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, xo‘jalik sinovlarining natijalar hamda texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Bajirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasida asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan mashinaga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqildi va uning konstruksiyasi yaratildi hamda tajriba nusxasi tayyorlanib, dala sinovlari o‘tkazildi. Ishlab chiqilgan intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashina, traktorga osish qurilmasi bilan jihozlangan umumiy rama (1), unga o‘rnatilgan keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar (3), ochilib qolgan daraxt ildizlarini ko‘muvchi sferik disklar (5) va tuproq surgich tekislagichlar (2) hamda tayanch g‘ildiriklar (4) dan tashkil topgan.



**10-rasm. Intensiv bog‘ mashinasining umumiy ko‘rinishi**

Sinovlarda ishlab chiqilgan intensiv bog‘ qatorlariga ishlov beradigan mashinaning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yiladigan talablarga to‘liq mos keldi. Ishlab chiqilgan intensiv bog‘ qatorlariga ishlov beradigan takomillashgan mashina qo‘llanilganda mehnat sarfi

46,08 foizga va ekspluatatsion xarajatlar 26,02 foizga kamaydi va buning evaziga bitta agregatdan 82 627 241,76 so‘m yillik iqtisodiy samara olindi.

## UMUMIY XULOSALAR

“Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashina ish organlarining parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Intensiv bog‘ qator oralariga sifatli ishlov berib, begona o‘tlarni yo‘qotadigan va ochilib qolgan daraxt ildizlarini ko‘madigan mashina bilan intensiv bog‘ qator orasiga ishlov berishda ish unumi, mehnat va yonilg‘i sarfini kamaytirishning eng maqbul yo‘li bu bir necha operatsiyalarni mashinani bir o‘tishida kombinatsiyalashgan bog‘ agregatini qo‘llagan holda erishish mumkin.

2. Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berishda keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan belgilangan agrotexnika talab darajasida ishlov berib, qator oralaridagi begona o‘tlarning to‘liq yo‘qotilishiga erishiladi.

3. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar belgilangan texnologik jarayonni ishonchli va talab darajasi bajarishi uchun qamrov kengligi 75 cm, ochilish burchagi  $90^\circ$ , ish organ pichoqlarining va iskanasining tuproqni uvalash burchaklari  $25-30^\circ$  oralig‘ida bo‘lishi lozim.

4. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ iskanasi tuproqqa yaxshi botishi va belgilangan chuqurlikda ishlov berishi uchun uning uzunligi kamida 20 cm eni esa kamida 8 cm bo‘lishi kerak.

5. Intensiv bog‘ qator oralaridagi begona o‘tlarni ish organlar orasida tiqilib qolmasligi, bog‘ qator orasi bir o‘tishda to‘liq qoplanishi ya‘ni texnologik ish jarayonni ishonchli va to‘liq bajarilishi uchun keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar orasidagi bo‘ylama masofa kamida 61 cm, ko‘ndalang masofa esa 150 cm bo‘lishi lozim.

6. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organ xivichlarining uzunligi 18 cm, ularning soni 10 dona, xivichlar orasidagi masofa 5,5 cm va xivichlarning gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi  $25^\circ$  bo‘lishi lozim.

7. Keng qamrovli xivichli yassi kesuvchi ish organlar bilan jihozlangan mashina 5,0-7,0 km/h ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta‘minlashi uchun yassi kesuvchi ish organlar qamrash kengligi 75 cm, ish organ pichog‘ining tuproqqa kirish burchagi  $20-25^\circ$  iskanasining eni 8 cm va uning tuproqqa kirish burchagi  $25-30^\circ$  oralig‘ida bo‘lishi hamda uning tortishga qarshiligi 3,32-3,33 kN ni tashkil etadi.

8. Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan takomillashgan mashinani qo‘llash bir gektar maydonga sarflanadigan mehnat sarfi 46,08 foizga va ekspluatatsion xarajatlar 26,02 foizga kamaytiradi va buni evaziga bitta mashinadan 82 627 241,76 so‘m yillik iqtisodiy samara olinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ  
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ  
РЕСУРСАМИ НАЦИОНАЛЬНОГО ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА «ТАШКЕНТСКОГО ИНСТИТУТА ИНЖЕНЕРОВ  
ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

**ХАЛИЛОВ ЖАХОНГИР МАНСУР УГЛИ**

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РАБОЧИХ ОРГАНОВ  
УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ МАШИНЫ ОБРАБАТЫВАЮЩЕЙ  
МЕЖДУРЯДЬЯ ИНТЕНСИВНОГО САДА**

**05.07.01 - « Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельского хозяйства и мелиоративных работ»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/T3742

Диссертация выполнена в Бухарский институт управления природными ресурсами национального исследовательского университета «Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу [www.qmii.uz](http://www.qmii.uz) и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Имомкулов Кутбиддин Бокижонович</b> доктор технических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Батиров Зафар Лутфуллаевич</b> доктор технических наук, доцент <b>Исломов Ёркин Искандарович</b> доктор философии технических наук (PhD)
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Центр по сертификации и испытанию сельскохозяйственной техники и технологий при Министерстве сельского хозяйства РУз</b>

Защита диссертации состоится «5» марта 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD 03/30.06.2020 Т 111 02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер 136) Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Автореферат диссертации разослан «19» 02 2025 года  
(Протокол рассылки № 10 «19» 02 2025 года).



**Ф. М. Маматов**  
председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Д. Н. Чуянов**  
Ученый секретарь научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Э. У. Ошдавлатов**  
Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире такие страны, как США, Германия, Испания, Российская Федерация, Турция и Китай, занимают лидирующие позиции по развитию сельскохозяйственного производства, созданию высокопроизводительных и качественных технических средств и технологий для выращивания качественной продукции в интенсивных фруктовых садах. Учитывая, что в настоящее время в мировом масштабе площадь фруктовых садов составляет 53,4 млн. гектаров<sup>1</sup>, важной задачей является создание и разработка энергоресурсосберегающих машин с высоким качеством и производительностью работ.

С применением передового опыта в сфере сельского хозяйства в мире ведутся научные исследования, направленные на производство новых видов энергосберегающих технологий и технических средств их реализации при междурядной обработке высокотехнологичных интенсивных садов. В частности, важное значение имеет разработка усовершенствованных рабочих органов культиваторов, обоснование выполняемых ими технологических процессов и оптимальных параметров, обеспечение ресурсной устойчивости процесса обработки почвы.

